



SOYABON BANDLARINING TA'SIRI: ULARNING TALQINI VA AMALIYOTDAGI AHAMIYATI

Valiboyev Izzatbek To'xtasin o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Xususiy huquq fakulteti 3-kurs
talabasi. email: @izzatbekvaliboyev22.

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7854987>

ARTICLE INFO

Received: 13th April 2023

Accepted: 21th April 2023

Online: 22th April 2023

KEY WORDS

Pacta sunt servanda, ekspropriatsiya, konsortsium, ipso facto, fors-major, bit, umbrella claus.

ABSTRACT

Xalqaro global maydonda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarning ta'siri doirasida investorlarga yaratib berilayotgan kafolatlar hamda mezbbon davlatlar va investorlar o'rtasida imzolangan xalqaro investitsiya shartnomalarining mazmun mohiyati, kuchga kirishi va xalqaro odat huquqi normalariga muvofiq, nizolarni muqobil usulda bartaraf etish maqsadida "Umbrella claus" (soyabon nazariyasi)ning amaliyotda muhim ahamiyat kasb etayotgani investor huquqlarining mustaqil poydevori sifatida namayon bo'lmoqda.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, investorlar huquqlarining kafolatlari, ularning huquqlarini cheklashga olib keladigan holatlarni oldini olishga qaratilgan xalqaro va milliy huquq normalari asnosida tatbiq etilishi. "Umbrella claus"(soyabon nazariyasi)ni kelib chiqish tarixi, mazmun mohiyati va investorlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan nizoli vaziyatlarni ushbu tartib-taomil tartibida ijobiy hal etilishi haqida maqsad qilingan.

KIRISH

Ma'lumki, so'ngi yillar davomida global maydonda sodir bo'layotgan turli xil ko'rinishdagi salbiy yoki ijobiy voqea hodisalar zahirida xalqaro investitsiya huquqining qiyofasi sezilarli darajada o'zgarganligini guvohi bo'lib turibmiz. Ushbu o'zgarishlarning sababi sifatida, xorijiy investitsiyalar bo'yicha nizolarning o'rtacha foiz ko'rsatkichi tobora ortib borayotganligi natijasida diplomatik aralashuv yoki ichki sud jarayonlaridan farqli ravishda xalqaro arbitraj orqali hal etilmoqda.

Bundan tashqari, ikki davlat o'rtasida boshqa bir davlatning tadbirkorlik subyektlari yoki korporatsiyalari tomonidan o'z hududlariga kiritilgan investitsiyalarga nisbatan samaradorlik munosabatini tartibga soluvchi ikki tomonlama xalqaro investitsiya shartnomasi ("BIT")ni to'laqonli aks ettirilishi sabab bo'ldi. Ushbu ikki tomonlama xalqaro shartnoma ("BIT") investorlarga keng ko'lamli investitsiya huquqlarini taqdim etish va



investitsiya nizolarini bartaraf etishda moslashuvchanlik muhitini joriy etish, ushbu jarayon orqali xorijiy investitsiyalarni samarali miqdorda jalb etilishiga xizmat qiladi.

Ta'kidlash lozimki, ikkinchi jahon urushidan keyin jahon iqtisodiyoti salbiy darajada yomonlashishni boshlagach, chet el kapitali erkinroq harakatlana boshladi hamda chet el investitsiyalarining ahamiyati oshib bordi. Xorijiy sarmoyaga (investitsiyaga) intilayotgan davlatlar bir vaqtda, xorijiy investorlar ham xalqaro investitsiya kabi erkin harakatlanishi sifatida ba'ho berilishi bir muncha noo'rin hisoblanar edi.¹

Xususan, investorlarning manfaatlarini ko'zlab takliflar, imtiyozlar va huquqlarining kafolatlari sifatida talqin qilinishi uchun yaxlit qonunchilik normasi mavjud emas edi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ko'zgu yoki parallel ta'sir ko'rsatish bandi ya'ni ("pacta sunt servanda") deb nomlanuvchi soyabon bandi ("Umbrella clause") ko'plab "BIT" larda mavjud bo'lgan shartnoma qoidasi bo'lib, har bir ahdlashuvchi davlatdan o'z zimmasiga yuklatilgan barcha investitsiya majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqi qoidasi tushiniladi. Soyabon bandi, ahdlashuvchi davlat va boshqa ahdlashuvchi davlatning xususiy investorlari o'rtasida shartnomaning "himoya soyaboni" tariqasida mustaqil investitsiya kelishuvlarini amalga oshirish orqali vujudga keladi. Qolaversa, ahdlashuvchi davlatlarning investorlari o'rtasida investitsion nizo mavjud bo'lgan taqdirda, manfaatdor taraf yetkazilgan zararni qoplab berish maqsadida yoki investor huquqlari ikkinchi taraf tomonidan buzilgan taqdirda, da'vogar taraf "BIT" arbitrajiga bevosita mrojaat qilish huquqi ushbu soyabon bandi orqali qanoatlantiriladi va tartibga solinadi.

Shuningdek, soyabon bandining tarixi, shuni ko'rsatadiki, u tegishli investitsiya shartnomasining har qanday buzilishi xalqaro ommaviy huquq doirasida shartnoma bo'yicha hal qilinishiga imkoniyat taqdim etish maqsadida paydo bo'lgan. Shunga qaramay, umumiy xalqaro huquqqa ko'ra, investor bilan tuzilgan investitsiya shartnomasining qoidalarini buzgan davlat o'z-o'zidan xalqaro majburiyatning buzilishi sifatida baholanishi yoki baholanmasligi bo'yicha aniq bir² ijobiy yechim nazarda tutilmas edi. Shu tariqa, investorlar ko'proq mezbon davlat bilan imzolangan investitsiya shartnomalari bo'yicha yuzaga keladigan, har qanday nizolarni mezbon davlatning munitsipal sudlarida hamda ichki qonunlariga ko'ra hal qilishga majbur bo'lar edilar.

Xususan, olimlar soyabon bandining kelib chiqishini 1954-yilda Angliya va Eron neft kompaniyasi ("AIOC") ning Eron neftini milliyalashtirish dasturiga oid da'volarni o'z ichiga olgan kelishuv bitimi loyihasidan izlaydilar.

1951-yilda ("AIOC") ning Eron bilan uzoq muddatli neft konsessiya shartnomasi bo'yicha manfaatlari samarali tarzda ekspropriatsiya tartib-taomili ijro etilgan. Buning sababi sifatida, Eron hukumatining o'zgarishi zahirida neftni milliyalashtirish to'g'risidagi qonunning

¹ . Jarrod Wong, Umbrella Clauses in Bilateral Investment Treaties: Of Breaches of Contract, Treaty Violations, and the Divide Between Developing and Developed Countries in Foreign Investment Disputes, 14 Geo. Mason L. Rev. 137 (2006).

² . Jarrod Wong, Umbrella Clauses in Bilateral Investment Treaties: Of Breaches of Contract, Treaty Violations, and the Divide Between Developing and Developed Countries in Foreign Investment Disputes, 14 Geo. Mason L. Rev. 137 (2006).



kuchga kirishiga va ushbu qonun Erondagi barcha neft operatsiyalarini hukumat qo'liga topshirilishiga olib kelgan. Natijada, ("AIOC") bir qator yakuniy muvaffaqiyatsiz variantlarni, shu jumladan, da'volarni arbitraj qilish bo'yicha muvaffaqiyatsiz urinishlarni tahlil qilgan. Kelishuv bitimiga ko'ra, ("AIOC") taklif qilgan kelishuv ikkita hujjatdan iborat bo'lishi kerak edi; 1) Eron va ("AIOC") ni o'z ichiga olgan neft kompaniyalari konsortsiumi o'rtasida Eronning ayrim neft obyektlarini foydalanishda davom etadigan "konsortsiyum kelishuvi" ya'ni (kompaniyalar, banklarning kapital talab, juda keng ko'lamdagi iqtisodiy loyihani amalga oshirish yoki qarzlarni hamkorlikda joylashtirish uchun tuzilgan vaqtinchalik birlashmasi), 2) Eron va Buyuk Britaniya o'rtasidagi konsortsiyum kelishuvini o'z ichiga olgan va uning shartlarini bajarish uchun Eron tomonidan kafolatlarni amalga oshiriladigan "soyabon shartnoma" ("Umbrella Claus") tuzilganligi, taraflar o'rtasida ushbu³ qoidaga rioya etilishi agar shartnoma yoki kelishuvning bajarilishi yuzasidan nizo mavjud bo'lganda "ipso facto" qoidabuzarlik deb hisoblanishi, soyabon shartnoma ham kelishuv faqat Eron qonunlari bilan tartibga solinmasligi haqida, aks holda uning bir tomonlama tafovutiga duchor bo'lishi mumkinligi va kelishuvning har qanday buzilishini ijobiy tomondan hal etish imkoniyatini beruvchi davlatlararo himoya vositasini taqdim etish to'g'risida imzolangan. Lekin, Eron sudlari tomonidan yuqoridagi kelishuv shartnomasining qoidalariga rioya etilmagan holda harakatlar amalga oshirilgan.

Shuningdek, bir necha yillardan so'ng, soyabon bandi 1959-yilda "Abs.Shawcross Draft Convention in investments in Abroad" (Abs-Shawcross Draft) chet el investitsiyalarini himoya qilish uchun 47 ta yevropalik huquqshunoslar tomonidan (Abs-Shawcross Draft) loyihasini "AIOC" faoliyati davomida yuzaga kelgan investitsiya nizolari turlarini to'laqonli o'rganish maqsadida yaratildi.

Soyabon bandi ("Umbrella Claus"), yuqoridagi Eron va Buyuk Britaniya o'rtasida imzolangan xalqaro investitsiya shartnomasini o'z ichiga olgan holda talqin qilinishi bandning maqsadiga mos keladi. (Abs-Shawcross Draft) konventsiya loyiha mualliflari konventsiyaning 2-moddasiga "Pacta sunt servanda" ya'ni umume'tirof etilgan taomilni tasdiqlash haqida va o'ziga xos mazmun kiritadilar. Ushbu prinsipning mazmuniga ko'ra, nafaqat davlatlar o'rtasida bevosita tuzilgan investitsiya shartnomalariga, balki investor va mezbon davlat o'rtasida tuzilgan investitsiya shartnomalariga ham taaluqli ekanligi va investor bilan davlat o'rtasida tuzilgan investitsiya shartnomasini har qanday buzilganligi uchun xalqaro huquq tomonidan qo'llaniladigan sug'urtalash vositasini joriy etish nazarda tutilgan.⁴ Ta'kidlash lozimki, (Abs-Shawcross Draft) konventsiya loyihasi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining ("OECD") ning ayrim konventsiyalarining loyihalariga, shu jumladan 1967-yildagi OECD ning chet el mulkini himoya qilish to'g'risidagi konventsiya loyihasiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Ushbu konventsiya loyihasining 57-modda ikkinchi qismiga ko'ra, har bir tomon har doim boshqa tomon fuqarolarining mulkiga nisbatan o'z majburiyatlari yuzasidan to'laqonli rioya etilishini ta'minlash nazarda tutilgan.

³ . Former Legal Adviser at the Iran-United States Claims Tribunal. J.D., University of California at Berkeley (Boalt Hall), 1999; LL.M., University of Chicago, 1996; B.A. (Law), Cambridge University, 1995.

⁴ The text of the Abs-Shawcross Draft is reprinted in UNCTAD "International Investment Instruments: A Compendium in United Nations, New York, 2000, Vol. V. p. 395.



OECD kengashi 1967-yilda o'zining 150-yig'ilishida konventsiya loyihasini a'zo davlatlarga o'zlarining "BIT" lari uchun namuna sifatida va xorijiy investitsiyalar uchun qo'llaniladigan xalqaro huquq qoidalarining umumiy tasdig'i sifatida tavsiya etishga qaror qilgan. Ushbu vaqt davomida, soyabon bandlar ("Umbrella Claus") "BIT" ga, shuningdek, dastlab ma'lum bo'lgan 1959-yilgi Germaniya va Pokiston "BIT" ga kirib borishiga sabab bo'lgan edi. Ushbu "BIT"ning 7-moddasida "taraflardan har biri o'zi qabul qilishi mumkin bo'lgan har qanday boshqa majburiyatni bajarishi muhim ekanligi" belgilangan. Qolaversa, investitsiya bo'yicha shartnoma tuzish vakolati ikkinchi tarafning fuqarolari yoki kompaniyalari tomonidan taqdim etilgan. Nemis sharhlovchisi, nemis "BIT" lari bo'yicha o'zining so'rovida bunday "soyabon bandi ayniqsa investor va qabul qiluvchi davlat o'rtasidagi investitsiya shartnomalariga taalluqli hamda xususiy shaxsga nisbatan javobgarlikni o'zgartiradi" deb ta'kidlab o'tgan.

Yuqorida alohida soyabon bandlariga oid izohga muvofiq, "BIT" ning keng ko'lamli so'rovlari odatda "Umbrella" bandlari investor va davlat o'rtasida imzolangan investitsiya shartnomalarining buzilishi sifatida tavsiflanishiga imkon beradi. Qolaversa, soyabon bandi tarixining yig'indisi va uni talqin qilish bo'yicha⁵ bir xil fikr-mulohazalar to'plami quyidagi xulosaga keladi; soyabon bandi investor va davlat o'rtasida imzolangan shartnomalar bo'yicha kelib chiqadigan majburiyatlarga nisbatan qo'llanilishiga hamda shartnoma majburiyatlarining buzilishi "BIT"ning buzilishi sifatida hal etilishiga turtki bo'lgan. Bugungi kunda, sharhlovchilar orasida soyabon bandi ("Umbrella Claus")ning mazmun- mohiyatining ahamiyati to'g'risida yanada izchil mulohazalar yuzaga kelganligi borasida, sharhlovchilar tomonidan muhokamalarga sabab bo'lmoqda.

Nemis huquqshunosi Prosper Vayl, Gaagadagi ma'ruzasida investitsiya shartnomasi davlat va investor o'rtasidagi oddiy shartnoma majburiyatini xalqaro huquq majburiyatiga aylantiradi, xususan, agar shartnoma davlatni bunday shartnomani hurmat qilishga majburlovchi band bo'lsa, degan fikrni taqdim etgan.

Kanada ijroiya qo'mitasining a'zosi William F. Mann, soyabon bandlarining qoidalari o'ziga xosligi haqida quyidagi fikrlarni ilgari surgan. "BIT" dagi soyabon bandi investorni shartnomani shunchaki buzishdan himoya qiladi degan jumladan farqli ravishda, "bu band alohida ahamiyatga ega bo'lgan qoidadir ya'ni u investorning shartnomaviy huquqlariga har qanday aralashuvdan, salbiy oqibatlarga olib kelishidan qat'i nazar himoya qilinishi hamda faqat shartnoma, qonunchilik va ma'muriy hujjatning buzilishidan, aralashuv oqibatida ekspropriatsiyaga teng yoki teng emasligidan, shartnoma yoki litsensiya shartlarini qonunchilik choralari bilan o'zgartirishga, bekor qilishga va shartnoma shartlaridan birortasini bajarmaslik holatlarida, investor shartnoma tuzgan mahalliy kompaniya tugatilgan taqdirda, yoki uning aktivlarini biron bir majburiyatsiz o'tkazish⁶ holatlari yuzaga kelganda shartnoma noqonuniy hisoblanishi" to'g'risida qayd etgan.

⁵ See UNCTAD, Dispute Settlement: Investor-State 41, Geneva, Switz., May 2003, U.N. Doc UNCTAD/ITE/IIT/30 (noting that in a survey of 335 BITs in force in 1992, 334 contained provisions for arbitration)

⁶ Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risidagi qonun (O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 25.12.2019 yildagi O'RQ-598-son.).



Ta'kidlash lozimki, investitsiya subyektlari huquqlarining davlat kafolatlari va investitsiyani himoya qilish borasida yurtimizda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda hamda ushbu islohotlar zahirida qonunchiligimizga bir qator o'zgartirishlar kiritildi. "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunning 3-bobi investorlarning huquqlari davlat tomonidan to'liq himoya qilinishi, bir qancha imtiyozlar taqdim etish va ziddiyatli qoidalar mavjud bo'lganda investor foydasiga hal etilishi haqida qoidalar belgilandi.

Ushbu qoidalar yuqorida muhokama qilib o'tilgan, soyabon bandi ("Umbrella Claus") ning muhim shartlari va vazifalarini o'z ichiga olgan normalar asosida ishlab chiqilganligini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, ushbu qoidalar quyidagilarni tartibga soladi, ya'ni investitsiya faoliyati subyektlari huquqlarining kafolatlari, mablag'lardan foydalanish va ularni erkin o'tkazish kafolatlari, investitsiya faoliyati tugatilishi munosabati bilan chet el investitsiyalarini qaytarish kafolatlari, qonunchilikning investor uchun noqulay o'zgarishlariga qarshi kafolatlar, investitsiyalarni himoya qilishning qo'shimcha kafolatlari va choralari hamda ziddiyatli qoidalar ta'sirida investorning huquqlari ustuvorlik asosida ijro etilishini amalga oshiradi.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qiladigan bo'lsak, soyabon bandi ("Umbrella Claus") umumiy nuqta'i nazardan olib qaraganda, xalqaro global maydonda ko'plab munozaralar investor va mezbon davlat o'rtasidagi ziddiyatlar omili sifatida emas balki rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi ziddiyat ekanligi tan olinmoqda. Buning sababi sifatida, mezbon davlatlardan ko'ra investorlarni qo'llab-quvvatlash yuqorida ilgari surilgan soyabon bandlarining talqini ham rivojlangan mamlakatlarni rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan afzal ko'rilishi va rivojlangan mamlakatlarning savdolashish kuchiga ega ekanligi sababli bunday taomil noo'rin ekanligini ko'rib o'tdik.

Bundan tashqari, soyabon bandi ("Umbrella Claus") investor va mezbon davlat o'rtasida imzolangan investitsiya shartnomasi xalqaro huquq qoidalari asosida ijro etilishi, shartnoma majburiyatlarini bajarishda mezbon davlatning qonunlariga asosan rioya etilmasligi, shartnoma davrida bartaraf etib bo'lmaydigan (fors-major) holatlari sodir bo'lgan taqdirda shartnoma majburiyatlarining investor tomonidan lozim darajada bajarilmasligi oqibatida mezbon davlatga yetkazilgan zararni investor tomonidan emas balki davlat tomonidan bartaraf etilishi, mezbon davlat tomonidan investor kiritgan investitsiyalarni natsionalizatsiya qilinmasligi va investorning huquqlari shartnoma shartlarisiz yoki boshqacha tarzda buzilgan taqdirda hamda har qanday qonunchilikdagi cheklovlardan qat'i nazar investorning foydasiga talqin etilishi va huquqlarining ustuvorligi tatbiq etilishi lozimligi haqida muhokama qilib o'tdik.

References:

1. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risidagi qonun (O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 25.12.2019 yildagi O'RQ-598-son.).

II. Ilmiy adabiyotlar:



2. Jarrod Wong, Umbrella Clauses in Bilateral Investment Treaties: Of Breaches of Contract, Treaty Violations, and the Divide Between Developing and Developed Countries in Foreign Investment Disputes, 14 Geo. Mason L. Rev. 137 (2006).
3. Former Legal Adviser at the Iran-United States Claims Tribunal. J.D., University of California at Berkeley (Boalt Hall), 1999; LL.M., University of Chicago, 1996; B.A. (Law), Cambridge University, 1995.
4. See UNCTAD, Dispute Settlement: Investor-State 41, Geneva, Switz., May 2003, U.N. Doc UNCTAD/ITE/IIT/30 (noting that in a survey of 335 BITs in force in 1992, 334 contained provisions for arbitration), available at <http://www.unctad.org/Templates/Download.asp?docid=3496&lang=1&intItemID=2314>.
5. The text of the Abs-Shawcross Draft is reprinted in UNCTAD "International Investment Instruments: A Compendium in United Nations, New York, 2000, Vol. V. p. 395.